

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, dastlabki ma'lumot)


2022- yil yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2669,4 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **16,7 %** ga o'sishi ta'minlandi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari, ming so'm
(2022-yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi


(2022-yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar, mln. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
Viloyat bo'yicha - jami	2346	106757	854945,9	2669,4
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	43	15719	130732,3	2710,4
Qurilish	7	416	2379,1	1898,8
Savdo	17	1023	9138,0	2843,1
Tashish va saqlash	9	1637	15254,5	3101,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	22	120,3	1822,8
Axborot va aloqa	18	507	7168,1	4249,9
Bank, sug'urta va vositachilik	20	1884	39218,0	6636,6
Ta'lim	1341	49823	364694,2	2411,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	77	19572	133479,8	2263,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	67	845	8422,3	3312,5
Boshqa faoliyat turlari	744	15309	144338,9	3132,8

Ish haqi. 2022- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Sanoat sohasida **43** ta korxonada **15 719** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **14,7 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar 130 732,3 mln so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **15,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 710,4** ming so'mni tashkil etib, 2021 - yilning mos davriga nisbatan **12,4 %** ga o'sdi.

Sanoat sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi
(ming so'mda)






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod tumani – **136,4 %**, Paxtakor tumani - **134,6 %**, Zarbdor tumani - **106,8 %** va Jizzax shahri - **105,8 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zomin - **81,0 %**, G'allaorol - **80,0 %**, Sharof Rashidov - **77,8 %** hamda Forish – **68,3 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Qurilish sohasida **7** ta korxonada 416 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,4 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **2 379,1** mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **0,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 898,8** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **81,6 %** ga pasaydi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasi bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l **-176,1 %** va Sh.Rashidov **-149,4 %** tumanlarida viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkich kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zomin tumanida – **86,6 %** va Jizzax sh. - **75,1 %** kuzatildi.





Savdo faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasida **17** ta korxonada **1 023** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,0 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **9 138,0** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **1,1 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 843,1** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **17,9 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumani – **142,2 %** va Jizzax shahri **-105,3 %** to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Zarbdor **-97,5 %** va Forish – **62,3 %** tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Ta'lim sohasida **1 341** ta muassasada **49 823** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **46,7 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **364 694,2** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **42,6 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 411,5** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **9,3 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – 136,0 %, Baxmal – 107,6 %, Zomin – 100,6 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Do'stlik – 99,4 %, Zarbdor – 97,1 %, Paxtakor – 92,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 - yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **77** ta muassasada **19 572** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **18,3 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **133 479,8** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **15,6 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 263,9** ming so'mni tashkil etib, 2021 - yilning mos davriga nisbatan **20,3 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlari Zomin – 114,2 %, Jizzax shahri – 111,0 %, Do'stlik – 104,0 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Hususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Paxtakor – 98,9 %, G'allaorol – 92,6 %, Sharof Rashidov – 90,9 %, Zarbdor – 89,1 % tumanlarida kuzatildi

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha **20** ta muassasada **1 884** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,8 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **39 218,0** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **4,6 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 636,6** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **30,7 %** ga o'sdi.




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **106,0 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod - **89,5 %**, Do'stlik - **34,0 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan

ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, foizda

(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Jizzax viloyati bo'yicha 2022 - yil yanvar -mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati Tashish va saqlash sohasida – **75,4 %**, Bank, sug'urta va vositachilik faoliyatida **30,7 %**, Axborot va aloqa sohasida **27,3 %**, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **-20,3 %**, Savdo sohasida **17,9 %**, San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida - **17,8 %**, va sanoat sohasida - **12,4 %** kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-mart oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqi, ming so'mda



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax

shahrida **3 410,2** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(127,7 %)** ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumanida **2 629,0** ming so'mni (**98,5 %**), Baxmal tumanida **2 576,9** ming so'mni (**96,5 %**), va Paxtakor tumanida **2433,7** ming so'mni (**91,2 %**) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)



Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

(2022- yil yanvar-mart qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %.
Jizzax viloyatida	2287,7	2669,4	116,7
Jizzax shahri	2848,7	3410,2	119,7
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1896,0	2116,7	111,6
Baxmal	2209,2	2576,9	116,6
G'allaorol	1816,3	2209,6	121,7
Sharof Rashidov	1975,8	2158,3	109,2
Do'stlik	2056,7	2214,1	107,7
Zomin	2115,4	2431,0	114,9
Zarbdor	2083,7	2419,2	116,1
Zafarobod	1779,8	2629,0	147,7
Mirzacho'l	1987,5	2231,9	112,3
Paxtakor	2092,3	2433,7	116,3
Forish	1843,0	2068,7	112,2
Yangiobod	2036,4	2237,9	109,9



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020- yildagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi joriy yilning 17 avgustdagi PQ-6279-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 822 000 so‘mni tashkil etadi.

***Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo‘limi.***

Тел:72-221-51-19